



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

2026/5



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





2026

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

3-JILD 5-SON



YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI
TO'PLAMI

3 - JILD, 5 - SON
2026



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

**YOSHLAR BILAN BOG'LIQ MEHNAT MIGRATSIYASI
MUAMMOLLARI****Shoikromova Munisa Shoorif qizi**shoikromovamunisa@gmail.comAlisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti

Psixologiya va sotsiologiya kafedrası sotsiologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar orasida mehnat migratsiyasining dolzarb muammolari, uning ijtimoiy-iqtisodiy sabablari hamda oqibatlari tahlil qilinadi. Xususan, yoshlarning chet elga ishlash uchun ketishiga ta'sir etuvchi omillar, ularning bandlik darajasi, malaka va ta'lim tizimi bilan bog'liq muammolar yoritilgan. Shuningdek, mehnat migratsiyasining yoshlar hayotiga, oilaviy muhitga va jamiyat rivojiga ko'rsatadigan ijobiy hamda salbiy ta'sirlari ko'rib chiqiladi. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ham ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: mehnat migratsiyasi, yoshlar bandligi, migratsiya muammolari, ishchi kuchi, tashqi migratsiya, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, malaka, ishsizlik, demografiya, mehnat bozori, yoshlar siyosati.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida mehnat migratsiyasi dunyo miqyosida keng tarqalgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida xorijiy davlatlarga ishlash maqsadida ketish tendensiyasi sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu holat bir tomondan yoshlar uchun daromad topish, tajriba orttirish va turmush sharoitini yaxshilash imkonini bersa, ikkinchi tomondan qator muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

Yoshlar mehnat migratsiyasining asosiy sabablari sifatida ichki mehnat bozorida ish o'rinlarining yetishmasligi, maoshlar darajasining pastligi, kasbiy malakaning yetarli emasligi hamda ta'lim tizimi bilan amaliyot o'rtasidagi nomutanosiblikni ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, migratsiya jarayonida yoshlar turli ijtimoiy, huquqiy va psixologik muammolarga duch kelmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligini shundaki, yoshlar mamlakatning asosiy mehnat resursi hisoblanadi va ularning chet elga ketishi iqtisodiy rivojlanish, demografik holat hamda ijtimoiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, yoshlar mehnat migratsiyasining muammolarini chuqur o'rganish va ularni hal etish yo'llarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi yoshlar bilan bog'liq mehnat migratsiyasining asosiy muammolarini tahlil qilish hamda ularni kamaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Metod va materiallar. Mazkur tadqiqotda yoshlar mehnat migratsiyasini o'rganishda statistik, solishtirma va tahliliy usullardan foydalanildi. Statistik tahlil orqali 2020–2026 yillardagi migratsiya dinamikasi, yoshlar ulushi va asosiy yo'nalishlar o'rganildi. Solishtirma usul yordamida O'zbekiston holati boshqa



davlatlar bilan qiyoslandi, tahliliy yondashuv orqali esa migratsiyaga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirildi.

Tadqiqot materiallari sifatida ilmiy maqolalar, rasmiy statistik ma'lumotlar hamda Gazeta.uz, Kun.uz va Dunyo axborot agentligi kabi manbalardan foydalanildi.

Asosiy qism. Mehnat migratsiyasi bugungi kunda ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar uchun dolzarb masala hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlarda, xususan, Yevropa davlatlari, AQSh va Osiyoning ayrim rivojlangan hududlarida mehnat migratsiyasi tizimli ravishda tartibga solingan. Bu davlatlarda migrantlar uchun huquqiy himoya mexanizmlari, ijtimoiy kafolatlar va moslashuv (adaptatsiya) dasturlari keng yo'lga qo'yilgan.[1] Yosh migrantlar ko'pincha rasmiy mehnat shartnomalari asosida ishlaydi, ularning mehnat huquqlari qonun bilan himoyalangan va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari yaratilgan.

Biroq, hatto rivojlangan davlatlarda ham yosh migrantlar ayrim muammolarga duch kelmoqda. Jumladan, til bilmaslik, madaniy moslashuv qiyinchiliklari, past malakali ish o'rinlarida ishlash, ayrim hollarda diskriminatsiya holatlari uchrab turadi. Shunga qaramay, bu davlatlarda muammolarni kamaytirishga qaratilgan davlat siyosati va institutlar samarali faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston misolida esa yoshlar mehnat migratsiyasi ko'proq iqtisodiy zarurat bilan bog'liq holda yuzaga kelmoqda. Mamlakatda ish o'rinlari yetishmovchiligi, ayniqsa yoshlar bandligi masalasi, ularni xorijga chiqishga undovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ko'plab yoshlar Rossiya, Qozog'iston, Janubiy Koreya kabi davlatlarga vaqtinchalik ishlash maqsadida ketmoqda.[2]

O'zbekistondan chiqqan yosh migrantlarning asosiy muammolari sifatida ularning ko'pincha norasmiy tarzda ishlashi, huquqiy himoyaning yetarli emasligi, mehnat sharoitlarining og'irligi va ijtimoiy kafolatlarning cheklanganligini ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari, ayrim hollarda yoshlar firibgarlik qurboniga aylanishi yoki noqonuniy mehnat faoliyatiga jalb qilinishi ham kuzatiladi.

Chet el va O'zbekiston holatini solishtirganda asosiy farq shundaki, rivojlangan mamlakatlarda migratsiya jarayoni ko'proq tizimli va nazorat ostida amalga oshiriladi, migrantlar huquqlari kengroq himoyalangan. O'zbekistonda esa migratsiya jarayoni hali to'liq tartibga solinmagan bo'lib, yoshlar ko'proq individual tashabbus asosida, yetarli tayyorgarliksiz chet elga chiqmoqda.

Shu boisdan, O'zbekistonda yoshlar mehnat migratsiyasini tartibga solish, ularni kasbiy tayyorlash, huquqiy savodxonligini oshirish hamda xavfsiz migratsiya mexanizmlarini rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Statistik tahlil. So'nggi yillarda O'zbekistonda yoshlar mehnat migratsiyasi sezilarli darajada o'sish dinamikasini namoyon etmoqda. Xususan, 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi sababli xalqaro migratsiya oqimlari keskin qisqargan bo'lsa, 2021-yildan boshlab ushbu jarayon bosqichma-bosqich tiklanib, 2022–2024





yillarda yuqori sur'atlarda o'sdi. 2025-yilga kelib, xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini olib borayotgan O'zbekiston fuqarolari soni taxminan 1,3–2 million nafardan ortiqni tashkil etgani qayd etiladi.[3]

Migratsiya jarayonida yoshlar yetakchi o'rin egallamoqda. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, mehnat migrantlarining qariyb 65 foizi 18–35 yosh oralig'idagi yoshlar hissasiga to'g'ri keladi.[4] Bu holat yoshlar bandligi muammolari hali ham dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Xususan, 2023-yilda yoshlar orasida ishsizlik darajasi 7,8 foizni tashkil etgani qayd etilgan.[5]

Mehnat migratsiyasining geografik yo'nalishlari ham o'zgarib bormoqda. An'anaviy ravishda asosiy migratsiya oqimi Rossiya tomon yo'naltirilgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda Qozog'iston, Turkiya, Janubiy Koreya kabi davlatlarga ham borayotganlar soni ortib bormoqda.[6] Bundan tashqari, Germaniya, Polsha va Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarga tashkiliy asosda yuborilayotgan mehnat migrantlari soni ham oshib bormoqda. Bu esa migratsiya yo'nalishlarining diversifikatsiyalashayotganini ko'rsatadi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, mehnat migratsiyasi eng yuqori bo'lgan viloyatlar qatoriga Samarqand viloyati, Andijon viloyati, Farg'ona viloyati, Namangan viloyati hamda Qashqadaryo viloyati kiradi. Ushbu hududlarda aholi zichligining yuqoriligi va ish o'rinlari yetishmasligi migratsiya darajasining oshishiga sabab bo'lmoqda. Aksincha, Toshkent shahri va Navoiy viloyatida sanoat va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanganligi sababli migratsiya darajasi nisbatan pastroq.

Mehnat migratsiyasining iqtisodiy ahamiyati ham yuqori bo'lib, u orqali mamlakatga katta miqdorda pul o'tkazmalari kirib kelmoqda. Xususan, 2024-yilda O'zbekistonga yuborilgan pul o'tkazmalari hajmi 14,8 milliard AQSh dollarini tashkil etib, bu mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 12 foiziga teng bo'lgan. Bu ko'rsatkich yoshlar migratsiyasining nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy ahamiyatga ham ega ekanligini tasdiqlaydi.[7]

Umuman olganda, 2020–2026 yillar davomida yoshlar mehnat migratsiyasi barqaror o'sib borayotgan bo'lib, uning asosiy sabablarini ichki mehnat bozoridagi muammolar, hududlararo iqtisodiy tafovutlar va yoshlar bandligi bilan bog'liq omillar tashkil etmoqda.

Muhokama va natijalar. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yoshlar mehnat migratsiyasi so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, uning asosiy sabablarini ichki mehnat bozoridagi muammolar, xususan ish o'rinlari yetishmasligi va daromad darajasining pastligi bilan izohlash mumkin. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, migrantlarning katta qismini yoshlar tashkil etishi ushbu muammoning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Muhokama natijasida aniqlanishicha, migratsiya yoshlar uchun daromad topish va tajriba orttirish imkonini yaratayotgan bo'lsa-da, ularning huquqiy himoyasi yetarli emasligi, norasmiy bandlik va ijtimoiy xavflar mavjudligi muhim muammolar sifatida saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, Rossiya kabi davlatlarga





ketayotgan migrantlar ulushi yuqoriligi migratsiya yo'nalishlarining yetarli darajada diversifikatsiyalanmaganini ko'rsatadi.

Tahlillar shuningdek hududlar kesimida nomutanosiblik mavjudligini ham ko'rsatdi. Xususan, Farg'ona viloyati, Andijon viloyati va Samarqand viloyati kabi hududlarda migratsiya darajasi yuqori ekanligi aniqlangan.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, yoshlar mehnat migratsiyasi bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy muammo, ham iqtisodiy resurs sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, ushbu jarayonni samarali boshqarish, yoshlarni kasbiy tayyorlash va xavfsiz migratsiya mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yoshlar mehnat migratsiyasi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshib bormoqda va bu jarayon asosan iqtisodiy omillar bilan bog'liq. Yoshlar orasida ishsizlik darajasi, ichki mehnat bozorida nomutanosiblik va daromadlar pastligi ularni xorijga ishlash uchun chiqishga undovchi asosiy sabablar hisoblanadi.

Shu bilan birga, mehnat migratsiyasi yoshlar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, yangi ko'nikmalar va tajriba orttirish imkonini bermoqda. Biroq, migratsiya jarayonida huquqiy himoyaning yetarli emasligi, norasmiy bandlik, ijtimoiy va psixologik muammolar kabi salbiy holatlar ham mavjud.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, yoshlar mehnat migratsiyasini kamaytirish emas, balki uni tartibga solish, xavfsiz va tashkiliy asosda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda yoshlarni kasb-hunar va xorijiy tillarga o'qitish, ichki mehnat bozorida yangi ish o'rinlari yaratish hamda migratsiya siyosatini takomillashtirish zarur.

Umuman olganda, yoshlar mehnat migratsiyasi O'zbekiston uchun muhim ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo'lib, uni samarali boshqarish mamlakatning barqaror rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

Taklif va tavsiyalar. Yoshlar mehnat migratsiyasi jarayonida uchraydigan muammolarni kamaytirish va ularni tartibga solish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, yoshlarni xorijga ishga yuborishdan oldin ularning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish zarur. Buning uchun kasb-hunar markazlari va o'quv kurslarida amaliy ko'nikmalarni oshirish, ayniqsa texnik va xizmat ko'rsatish sohalariga yo'naltirilgan tayyorlov dasturlarini kengaytirish muhimdir.

Ikkinchidan, xorijiy tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish lozim. Til bilish darajasi past bo'lishi migrantlarning eng katta muammolaridan biri bo'lib, bu ularning huquqlarini himoya qilish va yaxshi ish topish imkoniyatini cheklaydi.

Uchinchidan, mehnat migrantlari uchun huquqiy maslahat va himoya tizimini kuchaytirish kerak. Maxsus migratsiya markazlari orqali yoshlar shartnomalar, ish beruvchilar va huquqiy talablar haqida to'liq ma'lumot olishi zarur.



To'rtinchidan, norasmiy migratsiyani kamaytirish uchun rasmiy ishga yuborish tizimini kengaytirish va vositachilikni qat'iy nazorat qilish lozim. Bu firibgarlik va noqonuniy mehnatga jalb etilish xavfini kamaytiradi.

Beshinchidan, ichki mehnat bozorida yoshlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish va ularning daromadini oshirish orqali migratsiyaga bo'lgan majburiy ehtiyojni kamaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. Mehnat migratsiyasi va bandlik bo'yicha rasmiy hisobotlar. – Toshkent, 2024–2025.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Aholi bandligi va migratsiya ko'rsatkichlari bo'yicha statistik to'plamlar. – Toshkent, 2023–2025.
- 3.Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO). Labour migration reports and global migration trends. – Geneva, 2023–2025.
- 4.Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM). World Migration Report. – Geneva, 2024.
- 5.Gazeta.uz. O'zbekistonda mehnat migratsiyasi bo'yicha tahliliy maqolalar. – 2023–2025.
- 6.Kun.uz. Yoshlar bandligi va migratsiya mavzusidagi yangiliklar va tahlillar. – 2023–2025.
- 7.Dunyo axborot agentligi. Mehnat migratsiyasi va davlat siyosati bo'yicha materiallar. – 2024–2025.
- 8.Xalimatjanov F.M., Adhamboyev T.M. O'zbekiston-da mehnat migratsiyasi: sabablari va oqibatlari. – TADQIQOTLAR jurnali, 2025.
- 9.Turdialiyeva D.A. Mehnat migratsiyasi va uning oilaviy-sotsial oqibatlari. – “Nazariy va amaliy fanlardagi ustuvor islohotlar” to'plami, 2025.
- 10.Djurayev O., Saidakbarov J. Iqtisodiy o'sishda mehnat migratsiyasining ahamiyati. – Green Economy and Development jurnali, 2024.
- 11.Qo'chqarov O., Paxriddinov U. Yoshlarni kasb va xorijiy tilga o'rgatish orqali mehnat migratsiyasi imkoniyatlarini kengaytirish. – Innovatsion tadqiqotlar jurnali, 2025.
- 12.Madaminova K.S. Mehnat migratsiyasi va uning O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri. – Ilmiy konferensiya materiallari, 2025.
- 13.UNICEF. Mehnat migratsiyasining bolalar va oila muhitiga ta'siri haqida materiallar, 2021.